

AHMAD YASSAVIY IJODIDA SIMVOLIZM

Abdujalilova E'zoza Botir qizi,

UzFinPedI o'zbek tili va adabiyoti fakulteti magistranti

Abdujalilovaezoza097@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Ahmad Yassaviy ijodidagi simvollar haqida ma'lumot berilgan. Ahmad Yassaviy ijodidagi yo'l, suv va gul simvollarini haqida gap boradi.

Kalit so'zlar. Simvol, obraz, yo'l gul, suv, "Hikmatlar", tasavvuf, ma'naviy yo'l, ruhiy o'sish, she'r.

AHMED YESSEVI ESERLERINDE SEMBOLIZM

Abdujalilova E'zoza Botir kızı,

UzFinPedI, o'zbek dili ve edebiyati fakültesi, yüksek lisans öğrencisi

Özet. Bu makalede Ahmed Yessavi'nin eserlerindeki semboller hakkında bilgi verilmiştir. Ahmed Yessavi'nin eserlerinde yol, su ve çiçek sembolleriyle ilgili konuşulmaktadır.

Anahtar kelimeler. Sembol, imge, yol, çiçek, su, "Hikmetler", tasavvuf, manevi yol, ruhsal büyüme, şiir.

СИМВОЛИЗМ В ТВОРЧЕСТВЕ АХМАДА ЯССАВИ

Абдуджалилова Эъзоза Батир кызы,

магистрантка УзФинПедИ, факультета узбекского языка и литературы

Аннотация. В данной статье представлена информация о символах в творчестве Ахмада Ясави. Обсуждаются символы пути, воды и цветка в его произведениях.

Ключевые слова. Символ, образ, путь, цветок, вода, "Хикматы", суфизм, духовный путь, духовный рост, стихотворение.

SYMBOLISM IN THE WORKS OF AHMAD YASSAVIY

Abdujalilova E'zoza Botir kizi,

UzFinPedI Uzbek language and literature faculty, year master's student.

Abstract. This article provides information about the symbols in Ahmed Yassavi's work. It is about road, water and flower symbols in Ahmed Yassavi's work.

Keywords. Symbol, path, flower, water, "Proverbs" sufism, spiritual path, spiritual growth, poem, image.

Ahmad Yassaviy sharq olamining ulug' siymolaridan biri. Alisher Navoiy ta'kidlaganidek, Xoja Ahmad Yassaviy - Turkiston mulkining shayxul mashoyixidir. Maqomati oliy va mashhur, katomati matavoliy hayratlanarli va nomaxsur chegarasiz ermish. Imom Yusuf Hamadoniyning ashobidindur suhbatdoshi".[7] Yassaviy o'z ona tilini birinchi bo'lib tariqat tili maqomiga ko'tardi. Shuning uchun uning she'rlaridagi har bir so'z va har bir ibora islom haqiqatlari qadar muqaddas, nurli va ilohiydir.[6] Ahmad Yassaviy XI asrda yashagan Turkiston shoirlaridan biri, o'zining asarlarida simvolizmni keng qo'llagan. Uning ijodida tasvirlar, belgilar va ramzlar muhim rol o'ynaydi. Yassaviy o'zining "Hikmatlar" asarida ruhiy va falsafiy ma'nolarni ochish uchun bir qancha simvolik elementlardan foydalangan. Yassaviy o'z asarlari bilan O'rta asr islomiy adabiyoti tarixida muhim o'rin tutadi. Uning ijodi tasavvufiy ma'rifat, estetik go'zallik va chuqur simvolizm

bilan ajralib turadi. Yassaviy asarlarida keng tarqalgan ramzlar va obrazlar orqali bir qator ma'naviy tushunchalar ifodalanadi. Ushbu maqolada Yassaviy ijodidagi simbolizm va uning ma'naviy ahamiyati o'rganiladi. Yassaviy ijodida eng muhim simvol va obrazlar quyidagilardan iborat:

3. Yo'l – insonning ma'naviy yo'lini, ruhiy o'sishini ifodalaydi. Yo'l tasavvufiy ma'noda, ilohiy haqiqatga erishish uchun o'tishi kerak bo'lgan yo'ldir.

Aqlim ketdi, boshim qotti, nechuk oytay?

Rahmon egam, aro yo'lda qoldim mano. [2, 7]

Bu misolda Yassaviy insonning ma'naviy yo'lini tanlash haqida fikr yuritadi. Bu odatda Yuqoriga, ilohiy haqiqatga erishish uchun harakat qilishni anglatadi.

Qitmir itdin ibrat olg'il oshiq ersang,

Oqsoqlanib yo'ldin qolma sodiq ersang. [2, 5].

"Yo'ldan qolma" iborasi insonning o'z maqsadlari, qadriyatlari va tamoyillaridan chekinmaslikka chaqiradi. Ikkinchidan, "yo'l" ruhiy yoki ma'naviy yo'l sifatida ham talqin qilinishi mumkin. Ushbu ma'noda sodiqlik va to'g'rilik yo'li, ya'ni o'z his-tuyg'ulariga, prinsiplarga va sevgi maqsadlariga sodiq qolish muhimdir.

Yo'lg'a qadam qo'yoy dermiz Haqni izlab,

Yer-u ko'kda, oy-u kunlar Haqni izlab,

Arsh-u Kursiy, Lavh-u Qalam Haqni izlab,

Ey yoronlar, yaxshi qoling to ko'rguncha. [2, 76].

Bu misrada "yo'l" ma'no jihatdan haq va haqiqatga erishish yo'lini anglatmoqda. Yozuvchi haqni izlash jarayonida harakat va yo'lga chiqishni, o'zining maqsadini ko'zlab yurishni ifodalaydi. Yerda va osmonda haqni izlash, ya'ni hayotdagi ma'noni va haqiqatni topishga intilish, insonning ruhiy va ma'naviy yo'lini belgilaydi.

Tavba debon egri yo'ldin rostqa qoytib,

Tavba qilg'on qullar anda mehmon bo'ldi. [2, 74].

She'rda ma'lum bir maqsad uchun yo'lga chiqish, bilim olish va o'zini ifoda etish ko'zda tutilmoqda. Ruhiy o'sish uchun harakat qilish jarayoni sifatida talqin qilinadi.

2. Suv – hayot manbayi, yangilanish va tozalanish ramzi. Ahmad Yassaviy ijodida suv obrazi ko'plab she'rlarida muhim rol o'ynaydi. Suv ko'pincha ruhiy poklanish va ma'rifat darajasiga erishishni anglatadi.

Ul daraxtning aslin bilsang, Hudin ermish,

Tafrid, tajrid chashmalari suvdin ermish. [2, 38].

Bu misrada "suv" ma'nosi bilim va ma'rifatni anglatadi. "Tafrid" va "tajrid" chashmalari esa, o'z navbatida, bilim manbalarini ifodalaydi. "Daraxtning aslin bilsang, Hudin ermish" misrasida daraxt, aslida, insonning ma'naviy taraqqiyoti va yanada chuqur bilim olishini ko'rsatadi. Agar inson o'zining aslida kimligini va hayotdagi maqsadini bilsa, u holda bilim va ma'rifat chashmalaridan, ya'ni "suv"dan foydalana oladi. "Chashmalar suvdin ermish" iborasi esa, ilm-fan va ma'rifatning asl manbasi sifatida qabul qilinadi. Bu o'rinda suv insonni ruhiy va ma'naviy jihatdan to'ldirish va rivojlantirish vositasi sifatida tushuniladi. Umuman olganda, "suv" bu misrada bilim, ma'rifat va ruhiy hayot manbayi sifatida ko'rinadi.

Dunyo talab harislarni bandam demas,

Ro'zi mahshar yo'ldin ozsa yo'lg'a solmas,

Suvsab, chanqab dod aylasa, qo'lin olmas,

Dunyo tebib oxiratni suymayinmu? [2, 49].

Bu misrada "suv" ma'nosi qiyinchiliklar va dardlarni ifodalaydi. Suv, odatda hayotning bir ramzi sifatida ko'rilsa-da, bu kontekstdagi "suvsab" va "chanqab" atamallari insonlarning ma'naviy va ruhiy holatlarini anglatadi. "Suvsab, chanqab dod aylasa, qo'lin olmas" deganda, oxiratning ahamiyati, ya'ni dunyo hayotidan ko'ra, oxirat hayoti muhimroq bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritilgan. Umuman olganda, "suv" bu yerda hayotdagi sinovlar va qiyinchiliklarni, o'z xohishiga ko'ra yashayotganlarni anglatadi.

Vo darig'o, kechti umrum, qoldi boqo,

Yigitligim yeldek o'tti, suvdek oqo. [2, 47]

Bu misrada "suv" ma'no jihatdan vaqtning o'zgaruvchan xususiyatini ifodalaydi. Suvning oqishi va o'tishi, hayotdagi imkoniyatlar va yigitlik davrining tez o'tishini simvolizatsiya qiladi. Yozuvchi yigitlikning o'zgarishini va vaqtning beqiyos ahamiyatini ta'kidlaymoqda.

3. **Gul** – ijobiy his-tuyg'ular, go'zallik va muqaddaslik ramzi sifatida ishlatiladi. Ahmad Yassaviy ijodida gul obrazi ma'naviy go'zallik, sevgining ifodasi va ruhiy uyg'unlik ramzi sifatida keltiriladi. Quyidagi misollarni keltirish mumkin:

*Sahar sayrar bulbullar, gul yodidin har zamon,
Sen sayrasang na bo'lg'oy, Haq yodidin har zamon.*

Har qurt-u qush oytodur har nav' birla sanoni,

Qurt-u qushcha bo'mading, Hu demading har zamon. [1, 160]

Bu misrada "gul" go'zallik va ma'naviyat ramzi sifatida, shuningdek, inson hayoti va uning ruhiy tozalikni qidirish zarurligini ko'rsatadi. "Gul"ni izlash, tinchlik va ruhiy mukammallikka intilish jarayonini ta'kidlaydi.

Ichib kavsar suyini, uzub jannat gulini,

Izlab ani yo'lini, yo Mustafo Muhammad.

Qul Xoja Ahmad, qil toat, tinmay oytgil salovot,

Rasululloh bo'lg'oy shod, yo Mustafo Muhammad. [2, 66].

Bu misrada "gul" ma'nosi, avvalo, go'zallik va ezgulikni anglatadi. Jannat guli ramz sifatida yuksak ruhiy holatni, poklik va rahmatni ifodalaydi. "Jannat gulini" izlash, insonning ruhiy yuksalish, ma'naviy tozalik va mohiyatining go'zalligini qidirish jarayonini tasvirlaydi.

Ayni sahardadur gul, oshufta misli bulbul,

Ko'rgoch ani qizil gul, ruxsori qon emasmu?

Zinhor, ey suxan var, behuda to'kma gavhar,

Ko'ngul xazonasig'a til, posbon emasmu? [2, 44].

Bu misrada "gul" ma'nosi go'zallik, nafosat va sevgini ifodalaydi. "Gul" ko'pincha insonning ichki his-tuyg'ulari, muhabbat va hislar ramzi sifatida qo'llaniladi. "Zinhor, ey suxan var, behuda to'kma gavhar" iborasi orqali, "gul" go'zallik va nafosatni ifodalagan holda muhim va qimmatli narsalarni behuda sarflashdan ogoh qilmoqda. Bu yerda "gul" ichki go'zallik va ruhiyatning mustahkamligini ko'rsatadi. Ko'ngul xazonasig'a til, posbon emasmu?" degan so'zlar esa, "gul"ning ruhiy holdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. "Ko'ngil xazonasi" – bu insonning ichki olami, his-tuyg'ulari va orzulari, "posbon" esa, bu holda himoya qilishni anglatadi. Umuman olganda, "gul" bu misrada jamiyatdagi go'zallik, muhabbat va his-tuyg'ularning ramzi sifatida ko'rinadi, va u befarq bo'lishi mumkin emas, chunki u inson ruhiyatini va hayotining go'zalligini tashkil etadi.

Yassaviy ijodida simvolizm, o'zining kuchli estetik va ma'naviy potentsiali bilan ajralib turadi. Uning asarlaridagi ramzlar va obrazlar, nafaqat xarakterli tasvirlar, balki, insonning ruhiyatiga, ma'naviyatiga, hayot haqidagi tushunchalariga chuqur kirib borishga xizmat qiladi. Yassaviy go'zallik va haqiqiylik o'rtasidagi aloqani anglatib beruvchi simvolik tushunchalarni yaratgan, bu esa uning ijodini mustahkamlovchi asosiy omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg'oni. Hikmatlar – Toshkent: "O'zbekiston", 2013. 160b.
2. Buriyeva, F. (2025, March). Yunus Emro she'riyati: adabiy an'ana va individual uslub. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 15, pp. 37-39).
3. Xoja Ahmad Yassaviy. "Devoni hikmat (yangi topilgan na'munalar)". – Toshkent: "Movaraunnahr", 2004. 5-76-b.
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ibrohim-haqqul-yassaviy.html>
4. <https://abiturtest.uz/mavzular/ahmad-yassaviy-va-uning-hikmatlar-to%CA%BBplami/>